

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
174 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	



TURIZM ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH VA BANDLIK MUAMMOSINI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI

Kaxramanova Sevdal Shamsiddin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti, iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm sohasining bandlikni oshirishdagi roli, yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari va bu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan strategiyalar tahlil qilingan. Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatadigan ta'siri asosida bandlik muammosiga ijobiy ta'siri ko'rsatilgan. Shu bilan birga, turizmni rivojlantirishda davlat siyosati, xususiyl sektor ishtiroki, texnologik innovatsiyalar va mahalliy hamkorlik tizimlarining o'zaro muvofiqlashtirilgan ishlashi muhim omil sifatida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, bandlik, ishsizlik, xizmat ko'rsatish, innovatsiyalar, infratuzilma, ekoturizm, etnoturizm, gastronomik turizm, tibbiy turizm.

Abstract: This article analyzes the role of the tourism sector in increasing employment within a market economy, opportunities for creating new jobs, and strategies that need to be implemented in this area. Tourism's positive impact on employment issues is demonstrated through its socio-economic effects. In addition, the coordinated interaction between state policy, private sector participation, technological innovations, and local partnerships in tourism development is examined as a crucial factor.

Keywords: market economy, employment, unemployment, service sector, innovations, infrastructure, ecotourism, ethnic tourism, gastronomic tourism, medical tourism.

Аннотация: В данной статье проанализирована роль сферы туризма в повышении занятости в условиях рыночной экономики, возможности создания новых рабочих мест и стратегии, которые необходимо реализовать в этом направлении. Показано положительное влияние туризма на решение проблемы занятости на основе его социально-экономического воздействия. Также рассмотрены такие важные факторы, как государственная политика в сфере развития туризма, участие частного сектора, технологические инновации и согласованное взаимодействие местных партнёров.

Ключевые слова: рыночная экономика, занятость, безработица, сфера услуг, инновации, инфраструктура, экотуризм, этнический туризм, гастрономический туризм, медицинский туризм.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Uning barqaror rivojlanishi nafaqat bevosita iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki ijtimoiy sohalarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, bozor munosabatlari shakllanayotgan O'zbekiston sharoitida turizm sohasi yalpi ichki mahsulotda o'z o'rnini mustahkamlab borish bilan birga, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining turmush darajasini oshirish va ishsizlik darajasini kamaytirish orqali bandlik muammosini hal etishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Turizmning rivojlanishi bilan bog'liq holda mehmonxona xo'jaligi, transport, ovqatlanish xizmatlari, ekskursiya xizmatlari kabi yo'nalishlarda to'g'ridan-to'g'ri ish o'rinlari yaratiladi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznes subyektlari uchun qo'shimcha daromad manbalari shakllanadi. Ayniqsa, qishloq joylarida yashovchi yoshlar hamda ijtimoiy sohada malakaga ega aholining bandligini ta'minlashda turizm sektori doimiy va mavsumiy ish imkoniyatlarini yaratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, turizm sohasi investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy kapitalni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonlarida ham muhim strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, agro- va ekoturizm kabi istiqbolli yo'nalishlar orqali mahalliy resurslardan samarali foydalanish mintaqaviy tengsizliklarni kamaytirish hamda ijtimoiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu sababli, bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm sohasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omil, balki bandlik darajasini oshirish va ishsizlik muammosini kamaytirishning strategik vositasi sifatida alohida e'tiborga loyiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu maqolada turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri, ish o'rinlarini yaratish mexanizmlari, bandlikni oshirish yo'llari, shuningdek, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari tahlil qilingan. Turizm sohasining bandlik strukturasiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Xususan, Frey va Stutzer (2002–yil) hamda Gibson (2003–yil) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizmning iqtisodiy multiplikator ta'siri chuqur tahlil qilinib, ushbu jarayon nafaqat savdo hajmini kengaytirishi, balki jamiyatdagi bandlik strukturasiga shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Bu esa turizmni iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etishga asos yaratadi.

Shuningdek, Liu va hammualliflar (2017–yil) tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda turizmning ko'lamli iqtisodiy ta'siri, xususan, yangi ish o'rinlarini yaratishdagi roli atroflicha o'rganilgan. Mazkur tahlil natijalariga ko'ra, turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalarning ko'payishi va malaka oshirish dasturlarining kengayishi bandlik darajasida sezilarli o'sishni ta'minlaydi. Bu esa nafaqat iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi, balki turizm orqali ishsizlik muammosini bosqichma-bosqich kamaytirish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini har tomonlama o'rganishga doir adabiyotlar, uni milliy darajadagi bandlik siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm sohasi orqali yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez metodlari asosida turizm va bandlikka oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va statistika ma'lumotlari chuqur o'rganildi. Induksiya va deduksiya metodlari orqali turizmning bandlik darajasiga ko'rsatgan ta'siri asosida umumlashtirilgan ilmiy xulosalar shakllantirildi. Shuningdek, turizm orqali bandlikni oshirishga doir nazariy modellar ishlab chiqish orqali model yaratish yondashuvidan foydalanildi. Qiyosiy (komparativ) tahlil asosida O'zbekistonning turli hududlarida turizm sohasi orqali bandlik darajasiga erishish holatlari o'rganilib, xalqaro tajribalar bilan solishtirildi va umumiy hamda farqli jihatlar aniqlab berildi. Tadqiqotda case study (amaliy misol) yondashuvi qo'llanilib, O'zbekistonda turizm rivojiga oid real misollar asosida bu sohaning iqtisodiyotga, ayniqsa bandlik tizimiga ko'rsatgan bevosita va bilvosita ta'siri baholandi. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali turizm sohasining iqtisodiyotdagi o'rnini, bandlikni ta'minlashdagi samaradorligi va mavjud imkoniyatlardan foydalanish yo'llari tizimli tarzda tahlil qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm – bu mamlakat aholisining yoki boshqa davlatlardan tashrif buyuruvchi shaxslarning ma’lum bir maqsad doirasida doimiy yashash joyidan boshqa bir davlatga yoki shaharga vaqtinchalik safar qilishi bilan bog’liq faoliyat bo’lib, u nafaqat sayohat qilish, balki dam olish, madaniy-ma’rifiy, sog’liqni tiklash, tijorat kabi maqsadlarni ham o’z ichiga oladi. Ushbu faoliyat davomida sayohatchilar boshqa hududlardagi transport, mehmonxona, ovqatlanish, ko’ngilochar xizmatlardan, shuningdek, tabiiy va madaniy resurslardan foydalanadilar. Bu esa o’z navbatida turizm sanoatining rivojlanishiga sezilarli hissa qo’shadi.

O’zbekistonda sayohat va dam olishning deyarli barcha turlari – sport, milliy, yoshlar, ekologik, gastronomik, tibbiy, madaniy, tadbir, ziyorat, adabiy, qishki, velosiped sporti kabi turizm shakllari mavjud bo’lib, ularni tanlashda mavsumiylik omili muhim rol o’ynaydi. Turizm turlari ichida ayniqsa, aholini ish bilan ta’minlash, yangi bandlik shakllarini yaratish va ijtimoiy qatlamlarni qamrab olish imkoniyati yuqori bo’lgan yo’nalishlarga alohida e’tibor qaratilishi lozim.¹

Xususan, quyidagi turizm turlari mamlakatimizda bandlikni oshirishda muhim omillar bo’lib xizmat qilishi mumkin:

- Etnik turizm – sayyohlarning boshqa xalqlarning urf-odatlarini, yashash tarzi, milliy liboslari, musiqasi, marosimlari va madaniyati bilan tanishish maqsadida amalga oshiradigan sayohatlari bo’lib, mahalliy aholi ishtirokini rag’batlantiradi va yangi daromad manbalarini shakllantiradi.


- Gastronomik turizm – sayyohlarning boshqa hududlar yoki davlatlarning milliy taomlari, pazandachilik an’analari bilan tanishish va ularni tatib ko’rish maqsadida safar qilishidir. Bu yo’nalish orqali ovqatlanish xizmatlari, agroklastlar va oilaviy restoranlar faoliyati rivojlanadi.

- Ekoturizm – tabiat qo’ynida dam olish va ekologik muhofazaga e’tibor qaratishga yo’naltirilgan turizm bo’lib, qishloq aholisi uchun mavsumiy ish o’rinlari yaratadi.

- Madaniy turizm – tarixiy obidalar, milliy urf-odatlar va festivallar asosida shakllanib, xalq hunarmandchiligi, ekskursovodlik va madaniyat sohasi vakillarining bandligini ta’minlaydi.

- Tibbiy (wellness) turizm – sog’liqni tiklash va ruhiy dam olishga yo’naltirilgan turizm turi bo’lib, sanatoriy, klinika va sog’lomlashtirish markazlarida xizmat ko’rsatish faoliyatining kengayishiga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, O’zbekistonda turizmni ijtimoiy yo’naltirilgan soha sifatida rivojlantirish orqali yangi ish o’rinlarini yaratish, hududlararo tengsizlikni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlash mumkin. Ayniqsa, mahalliy resurslarga tayangan holda amalga oshiriladigan turizm tashabbuslari bandlik muammosini hal etishda samarali vosita bo’lib xizmat qiladi.



1-rasm. O’zbekistonda rivojlantirilishi kerak bo’lgan turizm turlari

¹ <https://uzbekistan.travel/uz/i/hamma-uchun-turizm/>

O'zbekiston boy tarixiy merosi, madaniy xilma-xilligi va tabiiy resurslarga ega mamlakat sifatida, turizm sohasini rivojlantirish orqali bandlik muammosiga samarali yechim topishi mumkin. Ayniqsa, etnik, gastronomik, ekoturizm, madaniy va tibbiy turizm turlari mamlakatning turli hududlarida yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy iste'dodlarni rivojlantirish hamda xalqaro maydonda o'z turistik brendini mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur turizm yo'nalishlari nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va madaniy merosni asrashda ham muhim vosita hisoblanadi.

Etnik turizm doirasida sayyohlar mahalliy xalqlarning urf-odatlarini, yashash tarzi va milliy an'analarini bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa an'anaviy hunarmandchilik, etno-restoranlar va etno-festivallarni tashkil etish orqali etnik aholiga doimiy va mavsumiy ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Gastronomik turizmni rivojlantirish orqali restoranlar faoliyatini takomillashtirish, taom tayyorlash bo'yicha master-klasslar tashkil etish va pazandachilik maktablarini yaratish nafaqat milliy oshxona obro'sini oshiradi, balki bandlik darajasini ham sezilarli darajada yuksaltiradi.


Tarixiy obidalar va madaniy yodgorliklarni restavratsiya qilish jarayonida muhandislik, arxitektura va hunarmandlik sohalarida yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shu bilan birga, restavratsiya va konservatsiya xizmatlari sohasida malakali kadrlar tayyorlash imkoniyati kengayadi. Tibbiy (wellness) turizm esa sog'liqni tiklash, reabilitatsiya va sog'lomlashtirish markazlari orqali xalqaro va ichki sayyohlarni jalb etadi. Sog'lomlashtirish kurortlari, SPA markazlari va reabilitatsiya muassasalari bazasida tibbiy xizmatlar kengayadi, bu esa shifokorlar, hamshiralar va boshqa tibbiyot mutaxassislari uchun yangi ish o'rinlarini yaratadi. Shu bilan birga, dorixonalar, kosmetologiya markazlari va muolaja klinikalari faoliyatining kengayishi ham kuzatiladi.

Agar ushbu yondashuvlar davlat, xususiy sektor va mahalliy hamjamiyat o'rtasidagi samarali hamkorlik asosida amalga oshirilsa, bandlik muammosini sezilarli darajada kamaytirish va milliy iqtisodiyotning o'sishini ta'minlashda katta imkoniyatlar yaratiladi.

Jahon Sayohat va Turizm Kengashining (BSTK) "Sayohat va turizmning O'zbekistonga iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri"ga oid ma'lumotlariga ko'ra, 2015–yilda turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,2 foizni (5 490 milliard so'm) tashkil etgan. Ish bilan bandlik darajasiga kelsak, aynan shu yili sayohat va turizm sohasi orqali umumiy bandlik nisbatida 2,8 foiz (439 500 ta ish o'rni) qayd etilgan². Keyingi yillarda, ayniqsa 2016–yildan so'ng boshlangan islohotlar natijasida O'zbekiston xorijiy sayyohlar uchun yanada ochiq mamlakatga aylana bordi.

2023–yilga kelib, O'zbekistonga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar soni keskin oshdi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023–yilda mamlakatimizga 6,7 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2015–yilga nisbatan bir necha barobarga oshgan. Bunday o'sish, o'z navbatida, turizm tarmoqlarining (ayniqsa madaniy, gastronomik, tibbiy va ekoturizm yo'nalishlarining) faol rivojlanishiga, yangi xizmat turlarining joriy etilishiga va eng muhimi – bandlik darajasining oshishiga zamin yaratgan.

Aholini ish bilan ta'minlashda ayniqsa mahalliy xizmat ko'rsatish, transport, mehmonxona xo'jaligi, ovqatlanish va gidlik faoliyati asosiy yo'nalishlar sifatida ajralib turmoqda.



2-rasm. Turistik maqsadlarda kelgan xorijlik fuqarolar soni(jami).³

2 Aslonova Muhabbat Qobil qizi. TADQIQOTLAR jahon ilmiy – metodik jurnali, ISSN:3030-3613

3 file:///C:/Users/user/Downloads/sdmx_data_1038.pdf statistik ma'lumotlar orqali muallif tomonidan tuzildi.



Shuningdek, turizm orqali bandlikni oshirishda bu sohaning ko'p tarmoqli tuzilmasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir sayyoh ortida unga xizmat ko'rsatuvchi transport haydovchisi, mehmonxona xodimi, oshpaz, hunarmand, gid va boshqa ko'plab mutaxassislar faoliyat yuritadi. Shu jihatdan qaralganda, turizm sohasiga kiritilgan har bir investitsiya – bu yuzlab, ba'zan minglab yangi ish o'rinlari demakdir. E'tiborga molik jihati shundaki, O'zbekistondagi turistik hududlarning geografik va tematik xilma-xilligi respublikaning barcha viloyatlarida turizmga asoslangan iqtisodiy faoliyat zanjirini shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, oziq-ovqat sanoati, hunarmandchilik va turistik xizmat ko'rsatish platformalari orqali bandlikni oshirish imkoniyati mavjud.

Masalan, Buxoro va Samarqandda madaniy va tarixiy turizm rivojlanayotgan bo'lsa, Farg'ona vodiysida hunarmandchilik va gastronomik turizm alohida ahamiyat kasb etmoqda. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida etnoturizm va ekoturizm yo'nalishlari orqali mahalliy aholining iqtisodiy faolligini oshirish, shuningdek migratsiya darajasini kamaytirish mumkin. Toshkent kabi markazlashgan hududlarda esa tibbiy turizmni shakllantirish zarurati mavjud. Natijada, turizm sohasi nafaqat dam olish va sayohat vositasi, balki mamlakat ichki bozorini jonlantiruvchi, xususiy tadbirkorlikni kengaytiruvchi va bandlik darajasini oshiruvchi muhim strategik tarmoq sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, turizmga yo'naltirilgan har qanday davlat siyosati nafaqat yalpi ichki mahsulotni oshirish, balki aholi farovonligini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Turizm sohasida ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish uchun ilg'or strategiyalarni amalga oshirishda davlat, mahalliy jamoatchilik, xususiy sektor va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi muvofiqlik, hamkorlik va sinergiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Davlat siyosati kontekstida turizmga yo'naltirilgan korxonalar va kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar yoki grantlar orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish zarur. Shu bilan birga, investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida maxsus "Davlat fondlari" yoki "Turizmni rivojlantirish jamg'armalari"ni tashkil etish hamda xususiy sektor bilan kooperatsiya tizimlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Turizm obyektlari faoliyatini, xizmatlar sifati va bandlik ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilish maqsadida o'zaro bog'langan monitoring tizimini yaratish ham zarur. Texnologik innovatsiyalar yo'nalishida esa turizm xizmatlarini onlayn rejalashtirish va bron qilish, virtual ekskursiyalar, interaktiv xaritalar va mobil ilovalar orqali yangi mijozlar segmentini jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, raqamli yechimlar va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida bozor tendensiyalarini aniqlash, shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etish, operatsion samaradorlikni oshirish hamda kadrlar tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish orqali turizm sohasini modernizatsiya qilish va bandlik darajasini oshirishga sezilarli hissa qo'shish mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turizm sohasi O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turizmning ko'p tarmoqli tuzilmasi har xil ixtisoslikdagi ish o'rinlarini yaratish imkonini berib, bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatda mavjud bo'lgan boy tarixiy, madaniy va tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanilgan taqdirda, ayniqsa mahalliy turizm turlarini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki ijtimoiy barqarorlikka ham erishish mumkin.

Aholining turli qatlamlarini – ayniqsa yoshlar, ayollar va ishsiz fuqarolarni turizm sohasiga faol jalb etish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yangi kasblarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bunda turizm orqali bandlikni oshirish strategiyalari doirasida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash – xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, kichik biznes subyektlariga kredit, subsidiya va grantlar ajratish orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirishga ko'maklashish.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish – onlayn bron tizimlari, interaktiv gid ilovalari, virtual ekskursiyalar va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar orqali turizm xizmatlarini qulay, zamonaviy va ommabop shaklga keltirish.




Mahalliy resurslardan samarali foydalanish – hududlarning madaniyati, urf-odatlar, milliy taomlari, hunarmandchiligi va tabiiy manzaralari asosida noyob turistik yo'nalishlar yaratish hamda ularni mahalliy aholi boshqaradigan xizmatlarga aylantirish orqali barqaror bandlikni ta'minlash.

Mazkur yondashuvlar orqali nafaqat ishsizlik darajasi kamayadi va iqtisodiy faollik oshadi, balki mamlakatning xalqaro maydondagi turizm salohiyati ham yangi bosqichga ko'tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNWTO. (2023). World Tourism Barometer. Madrid: United Nations World Tourism Organization.
2. Jahon banki. (2022). Tourism Development and Economic Growth: A Global Perspective. Washington, DC: World Bank Group.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2022). O'zbekistonning turizm sohasi bo'yicha statistik ma'lumotlari. Toshkent: Statistika qo'mitasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi. (2023). Turizm sohasi bo'yicha milliy strategiya va islohotlar. Toshkent: Turizm qo'mitasi.
5. World Economic Forum. (2022). Travel & Tourism Development Index. Geneva: WEF.
6. Safarov, B., Al-Smadi, H. M., Buzrukova, M., Janzakov, B., Ilies, A., Grama, V., Ilies, D. C., Csobán Vargáné, K., Dávid, L. D. (2022). Forecasting the Volume of Tourism Services in Uzbekistan. Sustainability, 14, 7762. <https://doi.org/10.3390/su14137762>
7. Aslonova Muhabbat Qobil qizi. Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali, ISSN: 3030-3613.
8. <https://uzbekistan.travel/uz/i/hamma-uchun-turizm/>
9. file:///C:/Users/user/Downloads/sdmx_data_1038.pdf



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100